

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YA'NI 1-SINFLARGA
INGLIZ TILINI O'RGATISH USULLARI**

Imomova Gavhar

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili fakultet 2.
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: N.N.Zubaydov

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarga ingliz tilini tez va oson o'rgatishning samarali usullari, mazmunli, qiziqarli va zamonaviy metodlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'z : Boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, o'rgatish usullari, tez va oson.

Bugungi kunda xorijiy tillarga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Ayniqsa ingliz tiliga bo'lgan e'tibor, qiziqish kuchaygan. Har bir sohaga chet tili kerak bo'lyapti. Bilimli yoshlar maktabgacha ta'limda, boshlang'ich ta'limda, o'rta maktablarda, oliy o'quv yurtlarida, hattoki oliy ta'limdan keyingi ta'limda ham ingliz tilini o'rganishmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ -1875- soni boshlang'ich sinflarga ingliz tilini o'rgatish uchun poydevor bo'ldi. Qaror bo'yicha 1-sinf bolalariga faqat talaffuz qilish va musiqalar yordamida ingliz tili o'rgatilsa, 2-sinfda esa alifboni va yozishni o'rgatish rejalari tuzilgan edi. Bugungi kunda esa bog'cha bolalariga ham ingliz tili o'rgatilayotganligi sababli 1-sinfga borgan o'quvchi ingliz tilidan anchagina so'z boyligiga ega bo'ladi va 1-sinfdan alifboni va yozishni o'rganishadi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradi.

Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Qo'shiq va she'rlar orqali o'rgatish.

Birinchi sinf bolalariga alifboni, oila a'zolarini, hayvonlarni, meva va sabzavotlarning nomlarini qo'shiq va she'rlar orqali o'rgatish osonroq. Bolalarga shunchaki yodlashdan ko'ra qo'shiq qilib yodlash qiziqarli bo'ladi va bolaning xotirasida tez qoladi.

Imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali;

O'qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel(come here), kitobni och(open the book), turing(stand up), doskaga qarang(look at the blackboard) kabi gaplarda imoishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi.

Ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;

Ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish. Masalan:eshik(door), kitob(book), stol(table), doska(blackboard), oyna(window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amliyotda ko'p qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.[222]

Xulosa qilib aytganda kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish majburiyat sifatida emas ,qiziqarli mashg'ulot sifatida olib borish kerak, dars o'tayotganda zamonaviy innovatsion usullardan, samarali metodlardan foydalanish kerak.Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Til bilgan — el biladi».

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.

2. John Adams II Analysis of retirement age in different countries of the world.London 2017.

3.—Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)IXalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.

4. J. Jalolov . —ingliz tilini o'qitish metodlaril —O'qituvchil nashiryoti Toshkent To'Xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.